

"Alloh Ta'alo Oliy A'rshning ustidadur"

Shayx Muhammad ibn Jamil Zayno
Tarjimon: IslomYoli tahririyati

Muqaddima

إِنَّ الْحَمْدَ لِلَّهِ نَحْمَدُهُ وَنُسْتَعِينُهُ وَنَسْتَغْفِرُهُ وَنَعُوذُ بِاللَّهِ مِنْ شُرُورِ أَنْفُسِنَا وَسَيِّئَاتِ أَعْمَالِنَا
مَنْ يَهْدِهِ اللَّهُ فَلَا مُضِلَّ لَهُ وَمَنْ يَضِلَّ فَلَا هَادِيَ لَهُ، وَأَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَحْدَهُ لَا
شَرِيكَ لَهُ وَأَشْهَدُ أَنَّ مُحَمَّدًا عَبْدُهُ وَرَسُولُهُ.

Barcha maqtovlar faqat Allohga xosdur. Biz unga hamdlar va istig'forlar aytamiz, hamda Undan yordam va nafsimiz hamda yomon amallarimizdan panox so'raymiz. Alloh hidoyat qilgan kimsani adashtiruvchi, adashtirgan kimsani hidoyat qilguvchi zot yo'qdur. Men sheriksiz, yagona Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad *sallallohu alayhi va sallam* Uning Bandasi va Elchisi deb guvohlik beraman.

﴿ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا اتَّقُوا اللَّهَ حَقَّ تَقَاتِهِ ۖ وَلَا تَمُوتُنَّ إِلَّا وَأَنْتُمْ مُسْلِمُونَ ﴿١٢﴾ ﴾

“Ey mo'minlar, Alloh Ta'alodan loyiq bo'lganidek qo'rqinglar va musulmon bo'lib vafot etinglar!” [Oli Imron 3:102]

﴿ يَا أَيُّهَا النَّاسُ اتَّقُوا رَبَّكُمُ الَّذِي خَلَقَكُمْ مِنْ نَفْسٍ وَاحِدَةٍ وَخَلَقَ مِنْهَا زَوْجَهَا

وَبَثَّ مِنْهَا رِجَالًا كَثِيرًا وَنِسَاءً ۚ وَاتَّقُوا اللَّهَ الَّذِي تَسَاءَلُونَ بِهِ ۖ وَالْأَرْحَامَ ۚ إِنَّ

اللَّهُ كَانَ عَلَيْكُمْ رَقِيبًا ﴿١﴾ ﴾

“Ey odamlar, sizlarni bir jondan yaratgan, u jondan esa juftini yaratgan va u ikkisidan ko'plab er va ayollarni yaratgan Alloh Ta'alodan qo'rqinglar! Yana oralaringizdagi savol-javoblarda o'rtaga nomi solinadigan Allohdan qo'rqingiz va qarindoshlik aloqalarini uzushdan qo'rqinglar! Alloh sizlarning ustingizda kuzatuvchi bo'lgan Zotdir” [Niso surasi 4:1]

﴿ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ ءَامَنُوا اتَّقُوا اللَّهَ وَقُولُوا قَوْلًا سَدِيدًا ﴿٥﴾ يُصْلِحْ لَكُمْ أَعْمَالَكُمْ

وَيَغْفِرْ لَكُمْ ذُنُوبَكُمْ ۗ وَمَنْ يُطِيعِ اللَّهَ وَرَسُولَهُ فَقَدْ فَازَ فَوْزًا عَظِيمًا ﴿٦﴾ ﴾

“Ey mo'minlar, Alloh Ta'alodan qo'rqinglar va faqat rost so'zlanglar, Alloh sizlarning ishlaringizni islox qiladi va gunoxlaringizni kechiradi. Alloh va Uning rasuliga itoat qilgan kimsa ulkan zafarlarga erishibdi” [Ahzob surasi 33:71]

أَمَّا بَعْدُ:

So'ngra ...

إِنَّ أَصْدَقَ الْحَدِيثِ كِتَابُ اللَّهِ

So'zlarning eng rosti Allohning Kalomidur.

وَخَيْرُ الْهَدْيِ هَدْيُ مُحَمَّدٍ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ،

Yo'llarning eng yaxshisi Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yo'lidir.

وَشَرُّ الْأُمُورِ مُحَدَّثَاتُهَا وَكُلُّ مُحَدَّثَةٍ بَدْعَةٌ، وَكُلُّ بَدْعَةٍ ضَلَالَةٌ، وَكُلُّ ضَلَالَةٍ فِي النَّارِ

Ishlarning eng yomoni dinda yangi qo'shilgan (e'tiqodiy, amaliy, qovliy va hokazo qo'shimchalar barchasi) narsadir. Va har bir yangi qo'shilgan narsa – Bid'atdir. Va har bir bid'at Zalolatdir va har bir Zalolat jahannamdadir. (Bu xutbani "Xojat xutbasi" deb ataladi. Bu xutbani xar bir ishni boshlashda o'qish mumkin. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam saxobalarga bu xutbani diniy ishlarida, u ishlar nikox, jumu'a, ma'ruza va boshqa bo'lsin, so'zboshi qilish o'qishlari mumkin ekanini o'rgatar edilar. Buning aslini ko'rish uchun quyidagilarga qarang: "Sunan Ibn Mojja": "Kitabun Nikox: Bab Xutbatun Nikax", "Sunan at-Termiziy", "Sunan Abi Dawud", "Sunan An-Nasoiy", Abu Ya'loning "Sunan"i, Bayhaqiyning "Sunan"i, Taboroniyning "al-Mu'jam al-Kabir" va Imom Ahmadning "al-Musnad" kitoblari. Bu xutbaning bir qismi Imom Muslimning "Sahih"ida "Kitabul-jumua': babu xutbatihii sollallohu alayhi va sallam"da rivoyat qilingan. Mufassal o'rganish uchun Shayx, Allohma, Muhaddis Muhammad Nosiruddin Alboniyning "Xutbatul Xoja" kitobiga murojaat qilinsin).

Alloh Ta'alo qayerda?

Alloh Ta'alo bizlarni yaratdi va bizlarga qalblarimiz, duolarimiz va namozlarimiz bilan Unga yuzlanishimiz uchun U qayerda ekanligini bilishlikni vojib qildi. Robbisi qayerda ekanligini bilmagan va Robbisi qaysi tarafda ekanligini bilmagan kimsa o'zining yo'lida adashib qolishligi va Uning haqiqiy ibodati qila olmasligi hech gap emas.

Allohning boshqa maxluqlardan **Oliylik sifati** boshqa eshitish, ko'rish, kalom va pastga tushishlik sifatlariga o'xshagan Qur'on va *sahih* hadislarda zikr qilingan Allohning sifatleri kapidur. Salafi solihinlar, najot topgan firqa, ahli sunnat val jamoa aqidasi Alloh Ta'alo O'zining Kitobidagi va Uning Rasuli hadislarda zikr qilgan xabarlariga *ta'vil*¹, *ta'tilsiz*² va *tashbihsiz*³ iymon keltirishni taqozo qiladi, bunga dalil Alloh Ta'aloning quyidagi qavlidur:

" Uning o'xshashi yo'qdur, U Eshitguvchi va Ko'rib turguvchi Zotdur"
[Shuro surasi 42:11]

Mana shu sifatlar, bulardan Allohning maxluqlardan Oliyligi, O'zining Zotini ta'riflovchi sifatlar ekan, **u sifatlariga ham iymon keltirish xuddi Uning Zotiga**

1 Qu'ron va Sunnatda bo'lmagan xabarlar bilan sharx qilib, natijada Alloh va Rasuli qasd qilgan ma'nodan boshqa ma'noni berishni *ta'vil* deyiladi.

2 Qur'on va Sunnatda bo'lgan Allohning sifatlarini butunlayin inkor qilishlik.

3 Qur'on va Sunnatda zikr qilingan Allohning sifatlarini boshqa maxluqlarning sifatlarini o'xshatishlik.

iymon keltirishdek vojibdur. Shuning uchun ham Imom Molik *rahimahulloh* Alloh Ta'aloning:

“**Ar-Rahmon bo'lmish Zot A'rushning ustiga istivo qildi** (O'zining Komil Zotiga loyiq holda ko'tarildi). “ [Toha surasi 20:5] oyati ma'nosi borasida so'ralganlarida shunday javob bergan ekanlar:

“**Istevo** (ko'tarilishlik) **bu ma'lumdur** (ya'ni ko'tarilish ma'nosini beradi), **kayfiyyati majhuldur. Unga iymon keltirish vojibdur va u borasida savol berishlik Bida'tdur**“. Ey musulmon birodarim! Imom Molikning bu javoblariga e'tibor beraylik. Ular ko'tarilish ma'nosini berguvchi, lekin kayfiyyatini faqat Allohdan o'zga hech kim bilmaydigan **istevoga** bo'lgan iymonni har bir musulmon bilishi zarur bo'lgan vojib amallardan deb hisoblagan ekanlar.

Shuning uchun ham, Quroni Karimda va Hadisi muborakda zikr qilingan Allohning sifatlaridan birontasini inkor qilgan kimsa, ular haqqida xabar berguvchi oyat va hadislarni inkor qilgan bo'ladi. Bu sifatlar Uning Komilligi va Oliyligiga dalolat qilguvchi sifatlardur, ularni (Alloh bunday sifatlarga ega emas deb) inkor qilishlik mutlaqo joiz emasdur.

Ko'p (sahoba, tobein va mujtahid imomlardan so'ng kelgan) musulmonlarning aqidalarini buzib yuborgan ba'zi bir falsafiy fikrlar natijasida ba'zi musulmonlar Allohning sifatlarini ifodalovchi oyat va hadislarni tafsir qila boshlashdi va natijada Komil Sifatlarini inkor qilishga borishdi. Bu bilan ular salaflarning yo'lidan adashishdi, vaholanki ularning yo'llari eng sof va eng ilmli va eng hikmatli yo'l edi. Quyidagi satrlarni aytgan kimsaning gaplari qanday ham to'g'ri:

كُلُّ خَيْرٍ فِي اتِّبَاعِ مَنْ سَلَفَ
وَ كُلُّ شَرٍّ فِي ابْتِدَاعِ مَنْ خَلَفَ

“ **Har bir yaxshilik salaflarga ergashishlikdadur,
Va Har bir yomonlik xalaflarning o'ylab to'lgan bid'atlaridadur**”

Xulosa

Qur'oni Karimda va *sahih* hadislarda zikr qilingan barcha Allohning sifatlariga iymon keltirishlik **vojibdur**. Allohning ba'zi sifatlariga zohiriy ma'nosiga iymon keltirgan xolda tasdiqlab, boshqalarni ta'vil qilgan xolda inkor qilib Alloh sifatlarining orasida tafriqa qilishlik joiz emasdur. Allohning Eshitish va Ko'rish sifatlariga boshqa maxluqlarga tashbih qilmagan xolda iymon keltirgan kimsa uchun, Allohning Osmonlar ustida ekanligiga iymon keltirish vojibdur, chunki bularning barchasi Alloh O'zining Kitobida O'zini ta'riflagan va Rasuli o'zining hadislarida ta'riflagan Allohning komilligiga dalolat qilguvchi Sifatlardandur. Ularni insonning fitrati va salim aqli tasdiq qiladi.

Naim ibn Hammad, Imom Buxoriyning shayxlari, shunday degan ekanlar:

“ **Allohni maxluqlarga o'xshatishlik kufrdur. Huddi shunga o'xshash,
Alloh O'zini sifatlagan Sifatlarini inkor qilishlik ham kufrdur. Alloh Ta'alo**

O'zini ifodalagan va Payg'ambari sollallohu alayhi va sallam hadislarida ifodalagan Sifatlarda *Tashbih yo'qdur* (ya'ni boshqa maxluqlarning sifatlariga o'xshatishlik yo'qdur) . (*Aqida At-Tahaviyyah sharxiga qaralsin*)

Alloh Ta'alo A'rshning ustidadur.

Bunga Qur'oni Karim, Payg'ambar sollallohu alayhi va sallamning *sahih* hadislarini, inson fitrati va sog'lom aql dolalar qiladi.

(Quroni Karimdagi dalillar)

1. Alloh Ta'alo shunday dedi:

" الرَّحْمَنُ عَلَى الْعَرْشِ اسْتَوَى " طه: 5

"Ar-Rohman bo'lgan Zot A'rshning ustiga ko'tarildi" [Toha surasi 20:5]

Imom Buxoriyning tobeinlardan rivoyat qilgan asarda kelishicha, *istevo* bu Alloh Ta'alo A'rshning ustiga ko'tarilishi va oliy bo'lishidir.

2. Alloh Ta'alo shunday deydi:

" أَأْمِنْتُمْ مَن فِي السَّمَاءِ أَنْ يَخْسِفَ بِكُمُ الْأَرْضَ فَإِذَا هِيَ تَمُورٌ " الملك: 16

"(Ey kofirlar!) **sizlar** (kofirligingizda oyoq tirab turaversalaringizlar) **Osmonlar ustida bo'lgan Zotdan sizlarni er yuttirib yuborishidan, bas, banogox** (er) **titroqqa tushib sizlarni bosib qolishidan hotirjamisizlar** (qo'rqmaysizlarmi)?" [Mulk surasi 67:16]. *Tafsir ibn Javziyda* Ibn Abbas radiyallahu anhu: "U (Osmonlar ustida bo'lgan Zot) Allohdur" degan ekanlar.

3. Alloh Ta'alo shunday dedi:

" يَخَافُونَ رَبَّهُمْ مِّنْ فَوْقِهِمْ " سورة النحل : 50

"Ular ustilari bo'lgan Robbilaridan qo'rqadilar" [Nahl surasi 16:50]

4. Alloh Ta'alo I'so alayhissalaom borasida shunday dedi:

" بَلْ رَفَعَهُ اللَّهُ إِلَيْهِ " النساء: 158

"Yoq, balki uni (I'ysoni) Alloh O'zining xuzuriga ko'tardi" [Niso surasi 4:158], bu oyatda murod, Alloh uni samovatga ko'tardi.

5. Alloh Ta'alo shunday dedi:

" وَهُوَ اللَّهُ فِي السَّمَاوَاتِ ... الأنعام: 3

"Alloh osmonlar ustida ham va Er ustida ham (ibodat qilinishlikka loyiq bo'lgan Zotdur)" [Anom surasi 6:3]

Ibn Kasir *rahimahulloh* o'zlarining tafsirlarida bu oyatning sharxida shunday deydilar: (Qur'on) mufassirlari **ittifoq qilib** shuni aytishganki: Biz *jahmiylarga*

o'xshab: "Alloh hamma makonda" deb aytmaymiz. Ularning ta'riflaridan Alloh Ta'alo Oliydur!. Alloh Ta'aloning:

" وَهُوَ مَعَكُمْ أَيَّنَ مَا كُنْتُمْ وَاللَّهُ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ " حديد : 4

"Va U (Alloh) sizlar qayerda bo'lmangiz sizlar bilandur, sizlarni nima qilayotganingizni ko'rib turadi" [Hadid surasi 57:4] degan oyatiga kelsak, uning ma'nosi Imom Ibn Kasir va Jalalaynda kelishicha shundaydur: "Alloh sizlar qayerda bo'lmangiz sizlarning amallaringiz shohid bo'lib ko'rib turguvchidir yoki Alloh O'zining Ilmi bilan barcha joydadur" deb tushunilish kerak.

(Sahih Hadislardagi dalillar)

6. Bir hadisda rivoyat qilinshicha:

" وَ عُرِجَ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِلَى السَّمَاءِ السَّابِعَةِ حَتَّى كَلَّمَهُ رَبُّهُ، وَفَرَضَ عَلَيْهِ خَمْسَ صَلَوَاتٍ متفق عليه "

"Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ettinchi osmonga ko'tarilgan va u erda Alloh Ta'alo bilan suxbatlashgan va besh vaqt namozni farz qilgan" [Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari]

7. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday degan ekanlar:

" أَلَا تَأْمُنُونِي، وَ أَنَا أَمِينٌ مَنْ فِي السَّمَاءِ " متفق عليه

"Menga osmon ustida bo'lgan Zot ishonib tursayu, sizlar menga ishonmaysizlarmi?!" [Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari]

8. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday degan ekanlar:

" اِرْحَمُوا مَنْ فِي الْأَرْضِ يَرْحَمَكُمُ مَنْ فِي السَّمَاءِ " رواه الترمذي

"Er yuzidagilarga rahm qilingiz sizlarga osmonlar ustidagi Zot (Alloh) rahm qilur" [Imom Termiziy rivoyati, *sahih* hadis]

9. Bir hadisda:

" سَأَلَ الرَّسُولُ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ جَارِيَةً، فَقَالَ لَهَا: أَيَّنَ اللهُ؟ فَقَالَتْ: فِي السَّمَاءِ. قَالَ: مَنْ أَنَا؟ قَالَتْ: أَنْتَ رَسُولُ اللهِ. قَالَ: اعْتَقِهَا فَإِنَّهَا مُؤْمِنَةٌ. " رواه مسلم

Rasululloh qiz bo'la bo'lgan quldan so'raydilar: **"Alloh qayerda?"**, u qiz: **"Osmon ustida"**, deb javob beradi. Rasululloh: **"Men kimman?"**, deb so'raydilar. U (qiz): **"Siz Allohning Rasulisiz"**, deydi. Shunda Rasululloh: **"Uni ozod qilgin, chunki u mo'minadur"**, deydilar. [Imom Muslim Muaviya ibn Hakam Al-Sulamiy radiyallahu anhudan qilgan rivoyatlari]

10. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday degan ekanlar:

" لَمَّا قَضَى اللَّهُ الْخَلْقَ كَتَبَ فِي كِتَابِهِ فَهُوَ عِنْدَهُ فَوْقَ الْعَرْشِ إِنَّ رَحْمَتِي غَلَبَتْ
غَضَبِي " متفق عليه

"Alloh Ta'alo O'zining maxluqlarini yaratganda, O'zining Kitobida, va u Kitob O'zining huzurida A'rshning ustidadur, shuni kitobot qilganki: "Darhaqiqat, Mening Rahmatim G'azabimdan ustun keladi" deyilgan. "
[Imom Buxoriy va Muslimning Abu Huraira *radiyallohu anhuda* qilgan rivoyatlari]

(Salaflardan bo'lgan ba'zi dalillar)

12. Abdulloh ibn Muborak *rahimahullohdan* so'ralgan ekan: "Siz Allohni qanday bilgan bo'lar edingiz?". Ular: **"U O'zining maxluqotlaridan farqli olaroq osmon ustida, A'rshning ustidadur. "**

Bundan kelib chiqadiki, Alloh Ta'alo maxluqotlaridan ajralgan xolda, Uning Jaloli biron ta maxluqlariga o'xshamagan xolda O'zining Zoti bilan osmonlar ustidadur.

13. To'rt imom (Imom Molik, Shofe'iy, Abu Hanifa va Ahmad *rahimahumulloh*) lar barchasi Alloh maxluqotlaridan farqli o'laroq, ularga oxshamagan xolda A'rshning ustida ekanligiga ittifoq qilishgan. ⁴

(Inson fitratining tasdiq qilishi)

14. Biron kimsa duo qilsa, u qo'llarini **yuqoriga ko'tarib duo qiladi** va sajdada bo'lganda esa: "Subhana Robbiyal A'la" ya'ni **"Eng Oliy Zot bo'lmish Parvardigorim barcha aybu nuqsonlardan pokdur"**, deydi (ya'ni Oliy maqomda bo'lgan Parvardigorim deydi.)

15. Agar yosh bolalardan "Alloh qayerda?" deb so'ralsa, o'zlarining salim fitratlari tufayli: "Osmonlar ustida" deb javob berishadi (Bu inson fitraning Alloh Ta'aloning Oliy maqomda ekanligini tan olishligiga dalolatdur)

(Sahih Aql dalili)

16. Sahih aql ham Alloh Ta'alodan oliy hech kim yo'qligini va Alloh Ta'alo eng Oliy maqomda ekanligini va U osmonlar ustida ekanligini tasdiq qiladi. Agarchi Alloh hamma makonda bo'lganda edi, Rasululloh *sollallohu alayhi va sallam* o'zlarining asxoblariga o'rgatib ketgan bo'lar edilar. Qayday qilib Alloh hamma makonda bo'lsin, agar osha joylar isqirt makonlar bo'lsa?! Alloh bunday

4 Imom Abu Hanifa *rahimahulloh* shunday degan ekanlar: "Alloh Subhanahu va Ta'alo osmondadur, Erda emasdur." Bir kimsa: "Allohning: **"U sizlar bilandur"** so'ziga nima deysiz?" deb so'raganda. Ular: "Buning misoli huddi sen bir kimsaga o'zing undan yiroqda bo'lgan xolda "men sen bilanman" deb yozganing kabidir. " degan ekanlar." [al-Asma' wal Sifat 2/170].

Boshqa rivoyatda Imom Abu Hanifa *rahimahulloh* shunday degan ekanlar: "Kimki: 'Men Robbimni Erdami yo Osmonda ekanligini bilmayman' desa kufr keltiribdi, shunga o'xshash agar bir kimsa: 'U A'rshning ustidadur, lekin A'rsh Erdami yo Osmondami bilmayman', desa u ham kufr keltiribdi" degan ekanlar. [Al-Fiqhul Absat 46]

xolatlarda bo'lishdan Oliydur. (Bu sahih-sog'lom aqlning Allohni osmonlar ustida ekanligiga tan olishligiga dalolatdur)

17. Agarchi Alloh Zoti bilan hamma deyishlik, Allohning ko'p Zotlari bo'lishini taqozo qiladi, chunki joylar turli-tuman va har xildur. (nauzubillah, bunday botil fahm qilishdan Alloh asrasin). Alloh O'zining Zoti bilan Bitta ekan, Alloh Ta'alonging barcha makonda degan e'tiqod o'z-o'zidan botilligi isbot bo'ladi. Shunday ekan, Alloh Ta'alo osmonlar ustida, A'rshning ustidadur va O'zining Bilishligi, Ko'rishligi va Eshitishligi bilan biz bilan barcha makondadur.